


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI

*60211100 – Aktyorlik san'ati bakalavriat ta'lif  
yo'nališining*

*MALAKA TALABLARI*

Toshkent-2024



**ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**  
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2024-yil "25" 06 dagi 218 - sonli buyrug'i bilan.

**JORIY ETILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lifning davlat ta'lif standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lifning davlat ta'lif standarti. Oliy ta'lif yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

	bet
T/r	
1. Umumiy tavsifi.....	4
1.1. Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari .....	4
1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	5
1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari .....	5
1.2.4. Kasbiy vazifalari.....	5
2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar .....	8
3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar .....	9
4. Fanlar katalogining tuzilishi .....	10
Bibliografik ma'lumotlar.....	12
Kelishuv varag'i.....	13

## **1. Umumiy tavsifi**

60211100 – Aktyorlik san'ati ta'lif yo'naliishlari bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta'lif shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lif shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'lifda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talablari 60211100 – Aktyorlik san'ati ta'lif yo'naliishlari bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lif muassasalar uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

Mazkur ta'lif yo'naliishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lif muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

ta'lif yo'naliishining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lif muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'lifni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lif muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lif tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lif muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

## **1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

### **1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.**

60211100 – Aktyorlik san'ati ta'lif yo'naliishlari bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari san'at va madaniyat muassasalaridagi ijodiy jarayonni tashkil etish, faoliyat tizimini takomillashtirish, umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib qilish, san'at va madaniyat sohasida kompleks masalalarni yechish, san'at va madaniyat sohasini boshqarishga tegishli muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan vositalar, usullarni takomillashtirish bilan bog'liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.**

Davlat va nodavlat tashkilot, teatrlar, teatrlashtirilgan tomoshalar, ommaviy tomoshalar, estrada, sirk, kino, radio va televideniye, barcha maydon tomoshalari, koncert, shou dasturlarida badiiy obrazlar yaratish, madaniyat va san'at muassasalari ijodiy jarayonlari va spektakllarida ishtirok etish.

O'zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligi huzuridagi muassasa va tashkilotlarda.

Davlat boshqaruv organlari, o'rta, o'rta maxsus kasbiy ta'limning davlat va nodavlat muassasalarida ijodiy jarayonlar va kompleks masalalarni yechish.

*60211100 – Aktyorlik san'ati* bakalavriat ta'lim yo'naliishlari bo'yicha bitiruvchilar pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgan taqdirda, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

### **1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- *ilmiy-tadqiqot;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *ijodiy ishlab-chiqarish;*
- *axborot-tahliliy faoliyat;*

### **1.2.4. Kasbiy vazifalari.**

*60211100 – Aktyorlik san'ati* ta'lim yo'naliishlari bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni samarali bajarishga qodir bo'lishi lozim:

#### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

Respublika va xorijda chop etilgan madaniyat va san'atga oid ilmiy-ijodiy axborotlarning ilmiy manbalarini o'rganish;

soha bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;

madaniyat va san'at sohasi obyekti va predmetlarini nazariy va amaliy muammolariga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda ishtirok etish;

mavzu bo'yicha ilmiy-ijodiy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;

ilmiy-ijodiy natijalarini va ishlanmalarini amaliyotga tatbiq etishda qatnashish.

amaliy faoliyatda zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikasi va kommunikatsion vositalaridan foydalanish;

zamonaviy texnologik jarayonlarni qo'llash;

ilmiy asoslangan tizimlarni tavsiya etish va foydalanish;

#### **Tashkiliy-boshqaruv va ijodiy-ishlab chiqarish faoliyatida:**

ijodiy-ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;

ijodiy-ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

ijodiy-ishlab chiqarishda zamonaviy axborot texnologiyalar tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash uslub va mexaniqlarini ishlab chiqish;

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyatga tatbiq etish;

ijodiy-ishlab chiqarish jarayonida sifatni boshqarish;

ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;

turli fikrlilik sharoitida boshqaruv qarorini qabul qilish;

birlamchi ishlab chiqarish guruh ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;

ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong‘in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish;

tegishli bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lish;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

dunyoqarash bilan bog‘liq tizimli bilimlarga ega bo‘lishi, davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;

Vatan tarixini bilishi, ma’naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o‘z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g‘oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo‘lishi;

tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo‘lishi, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va o‘z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

insonning boshqa insonga, jamiyatga, atrof muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy va ma’naviy mezonnarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;

axborot yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va undan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, o‘z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlarni qabul qila olishi;

tegishli bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tassavvur hamda e'tiqodga, o'zini jismoniy chiniqtirish uquv va ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

ta'lim yo'nalihi bo'yicha oliy ma'lumotli shaxslar egallashi lozim bo'lgan lavozimlarda mustaqil ishlashga;

tegishli bakalavriat yo'nalihi doirasida tanlangan mutaxassislik bo'yicha magistraturada oliy ta'limni davom ettirishga;

kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida qo'shimcha kasb ta'limi olish uchun tayyorlanadi.

estrada, dramatik, qo'g'irchoq, musiqali teatrлari aktyori; estrada xonandaligi; opera, operetta, sirk, filarmoniya ijrochiligi; maqom ijrochiligi; konferansye, badiiy so'z ustasi, kinofilm, videofilm, teleradio spektakllari, maydon tomoshalarida ijrochi sifatida ishtirok etish;

jahon va milliy aktyorlik san'ati, estrada janrlari va yo'naliishlari, maydon tomoshalarining nazariy va amaliy muammolarini tahlil qila olish;

bajarilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha faoliyatning ishlab chiqarish va texnologik masalalarini fan va texnikaning zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda kasbiy yechish qobiliyatiga ega bo'lish;

qo'g'irchoq teatri san'atining, qo'g'irchoq teatrida aktyorlik kasbining paydo bo'lish tarixi, jamiyatda tutgan o'rni, qo'g'irchoq teatri san'atining san'at sifatida shakllanish bosqichlari, qo'g'irchoq teatri janrlari va ularning xususiyatlari, jahon teatr san'ati maktablari va oqimlari, aktyorlik mahorati maktablari, qo'g'irchoq teatri san'atida aktyorlik san'ati tushunchasi, qo'g'irchoq teatri turlari va ularning boshqarish uslublari haqida tasavvurga ega bo'lish;

zamonaviy qo'g'irchoq turlarini boshqarish texnologiyalarni o'zlashtirish va ular vositasida qo'g'irchoq teatri tomoshalarini tashkil etishni bilishi;

televidenie va teatr san'ati sohasida turli ko'rsatuvlarni yaratishi, teatrda turli janrdagi va ko'rinishdagi spektakllarni yaratish hamda ularda aktyorlik mahorati imkoniyatlarini namoyish qilishi;

qo'g'irchoq teatri san'atining boshqa san'atlar bilan o'zaro ta'siri va aloqalari, qo'g'irchoq teatr rejissyori bilan hamkorlikda obraz yaratishda hamkorlik masalalarini hal etishi;

aktyorlik, sirk, konferanse, badiiy so'z ustasi, kinofilm, videofilm, teleradio spektakllari, maydon tomoshalari ijrochiligini amalga oshirishi;

qo'g'irchoq tomoshalar, estrada shou dasturlari, xalq bayramlari, sayillar, estrada tomoshalari, konsertlar, festival va ko'rik-tanlovlarda ishtirok etishi;

qo‘g‘irchoq tomoshalar, estrada shou dasturlari, ommaviy tadbirlar, maydon tomoshalari rahbari vazifasini bajarish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi;

ilmiy va amaliy faoliyatda sohaga mos tizimni rivojlantirish va ulardan foydalanish;

kasbiy etika kodeksiga rioya qilishi lozim.

### **Axborot-tahliliy faoliyatida:**

San’at asarlari samaradorligini baholash;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo‘yicha hisobot tayyorlash;

boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

### **2. Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.**

Davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;

dunyoqarash bilan bog‘liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo‘lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;

madaniyat va san’at sohasida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o‘z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

axborot yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, o‘z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

tegishli bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida tessavvurga ega bo‘lish;

meyoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatda foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

madaniyat va san’at tizimidagi ijodiy jarayonlarni tashkil etish;

estrada, drama teatri va kino san’ati, musiqali drama teatri, qo‘g‘irchoq teatrлari, estrada, sirk, kino, radio va televideniyyeda, barcha maydon tomoshalari, konsert, shou dasturlarida badiiy obrazlar yaratish, aktyor sifatida ishlash;

qo‘g‘irchoq teatrлari, shuningdek, drama teatri, musiqali drama teatri, estrada, sirk, kino, radio va televideniyyeda, barcha maydon tomoshalarida konsert, shou dasturlarini tashkil etish, ushbu konsert dasturlari hamda madaniy tadbirlarda konferensiyelik (boshlovchilik) faoliyatini olib borish;

estrada teatrлari, shou dasturlarini tashkil etish, estrada va shou dasturlarida konferensiyelik (boshlovchilik) faoliyatini olib borish;

bir aktyor teatri uchun repertuar tanlash, tashkiliy (ijodiy va ishchi) guruh tuzish;

estrada va shou dasturlari uchun ijodiy guruhalr repertuarini tanlash;

estrada va shou dasturlar ssenariysida vatanparvarlik, tinchlik, mustaqillik, milliylik, baynalminanlik, do'stlik va insoniylik g'oyalarini tatbiq etish;

estrada va shou dasturlari dramaturgiyasi kompozitsion tuzilishini aniqlash;

qo'g'irchoq teatri sepektakllari, qo'g'irchoq tomoshalari hamda shou dasturlari uchun ijodiy guruuhlar repertuarini tanlash;

qo'g'irchoq teatri sepektakllari, qo'g'irchoq tomoshalari hamda shou dasturlari ssenariysida vatanparvarlik, tinchlik, mustaqillik, milliylik, baynalminanlik, do'stlik va insoniylik g'oyalarini tatbiq etish;

qo'g'irchoq teatri sepektakllari, qo'g'irchoq tomoshalari dramaturgiyasi kompozitsion tuzilishini aniqlash;

madaniyat va san'at muassasalarida aktyorlik mahorati yo'nalishidagi to'garaklar faoliyatini tashkil etish;

spektakl va estrada shou dasturlarini sahnalashtirish;

mahalliy aholi o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni targ'ib etish;

ilmiy-tadqiqot tashkilotlarida kichik ilmiy xodim bo'lib ishlash;

O'zbek Milliy qo'g'irchoq teatri sohasidagi mavjud muammolarni o'rganish tahlil qilish va ijodiy ishlarni tashkillashtirish;

O'zbekiston nomoddiy madaniy merosini muhofaza qilish va targ'ib etish bilan bog'liq tashkiliy va ijodiy ishlarni tashkillashtirish;

aholi o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish kabi ko'nikmalariga ega bo'lish.

### **3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

1. Tanishuv amaliyoti;
2. O'quv amaliyoti;
3. Ishlab chiqarish amaliyoti;
4. Bitiruv oldi amaliyoti.

## 4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
<b>Majburiy fanlar</b>					
1.00					
1.01	O'zYT 20014	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.02	FAL 20014	Falsafa	120	4	3
1.03	DIN 20012	Dinshunoslik	120	4	2
1.04	O'z RT 20014	O'zbek (rus) tili	120	4	1,2
1.05	XT 20014	Xorijiy til	120	4	1,2
1.06	AT 20014	Axborot texnologiyalari	120	4	3,4
1.07	MST 20012	Madaniyat va san'at tarixi	60	2	7
1.08	O'z A 20014	O'zbek adabiyoti	120	4	1,2
1.09	JA 20014	Jahon adabiyoti	120	4	3,4
1.10	TT 20014	Teatr tarixi	120	4	5,6
<b>Aktyorlik san'ati: dramatik teatr va kino aktyorligi yo'nalishi bo'yicha majburiy fanlar</b>					
1.11	AM 200192	Aktyorlik mahorati	2760	92	1,2,3,4,5, 6,7
1.12	SN 200118	Sahna nutqi	540	18	1,2,3,4,5, 6
1.13	VOK 20012	Vokal	60	2	1
1.14	RITPL 20014	Ritmika-plastika	120	4	1,2
1.15	RAS 200112	Raqs	360	12	1,2,3,4,5, 6
1.16	SHJ 20018	Sahna harakati va jangi	240	8	3,4,5,6
1.17	AKOI 20014	Aktyorning kamera oldida ishlashi	120	4	6,7
1.18	GR 20014	Grim	120	4	7
1.19	SAXHT 20012	Sahnaviy asar xatti-harakati tahlili	60	2	7
1.20	PTMA 20014	Pantomima	120	4	5,6
1.21	DN 20014	Drama nazariyasi	120	4	5
2.00		<b>Tanlov fanlar</b>	300	10	4-5-7
		<i>Tanlov fanlar</i>	300	10	4-5-7
<b>Kvalifikatsiya</b>					
<i>Dramatik teatr va kino aktyori</i>					
<b>Aktyorlik san'ati: musiqali teatr aktyorligi ta'lim yo'nalishi bo'yicha majburiy fanlar</b>					
1.11	AM 200183	Aktyorlik mahorati	2490	83	1,2,3,4,5, 6,7
1.12	SN 200118	Sahna nutqi	540	18	1,2,3,4,5, 6
1.13	VOK 200112	Vokal	360	12	1,2,3,4,5, 6
1.14	AXBI200111	Aktyorning xormeyster bilan ishlashi	330	11	1,2,3,4,5
1.15	YQ20016	Yakkaxon qo'shiqchilik	180	6	5,6,7
1.16	RAS 20018	Raqs	240	8	1,2,3,4
1.17	SHJ 20018	Sahna harakati va jangi	240	8	3,4,5,6
1.18	GR 20014	Grim	120	4	7
1.19	DN 20014	Drama nazariyasi	120	4	5,6
2.00		<b>Tanlov fanlar</b>	300	10	4,5,7
		<i>Tanlov fanlar</i>	300	10	4,5,7

*Zohir*

<i>Kvalifikatsiya</i>		<i>Musiqali teatr aktyori</i>			
<i>Aktyorlik san'ati: qo'g'irchoq teatr aktyorligi ta'lif yo'nalishi bo'yicha majburiy fanlar</i>					
1.11	AM 200180	Aktyorlik mahorati	2400	80	1,2,3,4,5, 6,7
1.12	SN 200120	Sahna nutqi	600	20	1,2,3,4,5, 6,7
1.13	QYT 200110	Qo'g'irchoq yasash texnologiyasi	300	10	2,3,4,5,6
1.14	QBA 200110	Qo'g'irchoq boshqarish asoslari	300	10	3,4,5,6,7
1.15	QMK 20014	Qo'g'irchoq mexanikasi va konstruksiyasi	120	4	5-6
1.16	VOK 20018	Vokal	240	8	3,4,5,6
1.17	RITPL 20014	Ritmika-plastika	120	4	1-2
1.18	RAS 20018	Raqs	240	8	1,2,3,4
1.19	SHJ 20014	Sahna harakati va jangi	120	4	5,6
1.20	PTMA 20014	Pantomima	120	4	5,6
1.21	GR 20012	Grim	60	2	7
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>300</b>	<b>10</b>	<b>4,5,7</b>
		<i>Tanlov fanlar</i>	300	10	4,5,7
<i>Kvalifikatsiya</i>		<i>Qo'g'irchoq teatri aktyori</i>			
<i>Aktyorlik san'ati: estrada aktyorligi ta'lif yo'nalishi bo'yicha majburiy fanlar</i>					
1.11	AM 200196	Aktyorlik mahorati	2880	96	1,2,3,4,5, 6,7
1.12	SN 200118	Sahna nutqi	540	18	1,2,3,4,5, 6
1.13	VOK 200112	Vokal	360	12	1,2,3,4,5, 6
1.14	RITPL 20014	Ritmika-plastika	60	2	1
1.15	RAS 200112	Raqs	360	12	1,2,3,4,5, 6
1.16	SHJ 20018	Sahna harakati va jangi	240	8	3,4,5,6
1.17	PTMA 20014	Pantomima	120	4	6,7
1.18	GR 20012	Grim	60	2	7
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>300</b>	<b>10</b>	<b>4,5,7</b>
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	300	10	4,5,7
<i>Kvalifikatsiya</i>		<i>Estrada aktyori</i>			
		<b>Jami</b>	<b>6060</b>	<b>202</b>	
		Malakaviy amaliyot	900	30	2,4,6,8
		Bititruv malakaviy ishi	240	8	8
		<b>Jami</b>	<b>1140</b>	<b>38</b>	
		<b>HAMMASI</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	

**Bibliografik ma'lumotlar**

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

**Tayanch so'zlar:**

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat jabhasi, bakalavriatning asosiy ta'lim dasturi, profil, o'qib-o'rghanish natijalari, o'quv sikli, kasb ta'limi, madaniyat, san'at, rejissyor, rejissura, sahnalashtirish, ijod, dramaturg, kompozitsiya, konflikt, g'oya, oliv maqsad, mavzu, syujet, prolog, kulminatsiya, final, janr, xatti-harakat, tempo-ritm, masal, matal, sahna nutqi, diksiya, artikulyatsiya, ovoz, nafas, aktyor, sahna, ekran, drama, teatr, bayram, tomosha, estrada, teatrlashtirish, shou dasturi, mizansenna, badiiy-ifodaviy bezak, musiqiy bezak, fon guruhi, badiiy fon guruhi, ijro, kechinma san'ati, taqlidiy san'at, grim, niqob, raqs, vokal, qo'shiq, ashula, tez aytish, sa'j, aktyorlik treningi, aruz vazni, g'azal, ruboiy, asar, tanqid, tahlil, axborot, roman, pyesa, tragediya, komediya, rol, obraz, salbiy, spektakl, adabiyot, repertuar, xarakter, xarakterlilik, konflikt, kompozitsiya, janr, ssenografiya, musiqa, folklor, adib, muallif, montaj, televide niye, radio, kino, monolog, dialog, etyud.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan oliy ta'lif muassasalari hamda  
kadrlar iste'molchilari

### ISHLAB CHIQILGAN:

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Rektor  N.B. Sayfullayev

2024-yil



KELISHIDI.

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi  
huzuridagi Oliy ta'lifni  
rivojlantirish tadqiqotlari  
markazi

Direktor  M.R. Boltaboyev

2024-yil

M.O.

O'zbek Milliy qo'g'irchoq teatri

Direktor  X.H. Axunov

2024-yil " "

Muqimiyl nomidagi O'zbekiston davlat musiqli  
teatri

Direktor  A.A. Mullaxonov

2024-yil " "

M.O.

O'zbekiston Respublikasi  
Madaniyat vazirligi  
Ta'lif sohasini muvofiqlashtirish

Bo'shm boshlig'i  O.R. Salixov

2024-yil

M.O.

O'zbekiston davlat yosh tomoshabinlar teatri

Direktor  Z.J. Hamrayeva

2024-yil

M.O.

O'zbekiston davlat drama teatri

Direktor  S.S. Mansurov

2024-yil

M.O.

M.O.